

FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

www.academicsbook.com

Vol: 2 Issue: 1 (2025)

BUGUNGI KUNDA TA'LIM TIZIMIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Azizova Dildora Mamaraximovna

Nurota tuman 2-son politexnikumi Maxsus
fan o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lrim tizimida elektron ta'lrim resurslari tushunchalari, xususiyatlari va asosan funksiyalari hamda ulardan foydalanish imkoniyatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: elektron ta'lrim, kompyuter texnologiyalari, raqamli ta'lrim, resurslar, funksional, treningli resurslar, diagnostikalovchi resurslar, kommunikativ, servis resurslar.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini kasbga tayyorlashning sifatiga yangi talablarni qo'yemoqda. Bu borada yurtimizda zamon talablari asosida ta'lrim jarayonini tashkil etish, malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, elektron ta'lrim resurslari bu kompyuter texnologiyalari asosida ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan o'qitish vositalarini birlashtiruvchi eng umumiy atamadir. Elektron ta'lrim resurslarining xususiy holati bo'lgan raqamli ta'lrim resurslari - bu raqamli texnologiyalar asosida yaratiladigan va amal qiladigan ta'lrim resurslaridir. Mazkur atamalar orasidagi farq prinsipial bo'lib hisoblanadi, chunki raqamli texnologiyalar – bu bor yo'g'i axborotni yozib olish va qayta ishlash usulidir. Hozirgi vaqtida bulardan tashqari kvantli, lazerli va hokazo tizimlar ishlab chiqilmoqda. Shu sabab, elektron ta'lrim resurslari – texnologiyaning bir qismi emas, balki uning butun bir sohasini tavsiflovchi eng umumiy nomlanishi bo'lib sanaladi.

Elektron ta'lrim resurslarini tavsiflash va ularning tipologiyasi bo'yicha turli xil maqsadli belgisi, o'qitish turi, metodik maqsadi, funksional maqsadi, didaktik maqsadlari va mashg'ulotlarni tashkil etish shartli hamda shu kabilar bo'yicha yondashuvlar mavjuddir. Ta'kidlab o'tish joizki, bu tarzidagi tavsiflashlar yetarlicha shartli xususiyatga ega bo'lib, ular texnologiyalarning turli xil sinflarida o'zaro kesishishlari ham mumkin. Quyida men elektron ta'lrim resurslari funksional maqsadlari bo'yicha elektron resurslarning tasnifiga to'xtalmoqchiman.

Namoyish etuvchi resurslar – ular o'r ganiladigan obyektlar, hodisalar, jarayonlarni vizuallallashtirishga imkon beradi, istalgan ta'lrim axborotlarini to'liq holda yaqqol tavsiflashni ta'minlaydi.

Treningli resurslar – ular turli xildagi malaka ko'nikmalarni hosil qilish, o'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun mo'ljallanadi.

FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
www.academicsbook.com

Vol: 2 Issue: 1 (2025)

Diagnostikalovchi va testdan o'tkazuvchi resurslar – bular ta'lim oluvchining bilimlari, mahorati, ko'nikmalarini baholaydi, o'qitilganlik darajasini, shaxsiy sifatlarning shakllanganligini, intelektual rivojlanish darajasini belgilaydi.

Nazorat qiluvchi resurslar – o'qitish natijalarini nazorat (o'z-o'zini nazorat) qilish jarayonlarini, o'quv materialini egallaganlik darajasi belgilanishini avtomatlashtiradi.

Ekspert resurslari – bular o'quv jarayoni borishini boshqaradi, foydalanuvchi va o'qitish tizimi o'rtasida o'quv vazifalarini bajarishda muloqotni tashkil etadi.

Kommunikativ resurslar – bular lokal va global tarmoqlarda istalgan axborotni olish imkoniyatini, o'quv jarayoni sub'yektlarini uzoq masofalardan turib interaktiv o'zaro aloqasini ta'minlaydi.

Hisoblash resurslari – ko'rib chiqilayotgan jarayonlar va hodisalardagi o'quv tajribalari, hisob-kitoblar, o'lchovlarni qayta ishlash jarayonini avtomatlashtiradi.

Servis resuslari – bular foydalanuvchining kompyuterda ishlash qulayligi va xavfsizligini ta'minlaydi.

Hordiq chiqarish resurslari – bular ta'lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanishi va tarbiyalanishi maqsadlarida dam olish vaqtini tashkil etish, auditoriyadan tashqari ishlash uchun kompyuter kommunikatsiyasi vositalari va kompyuter o'yinlaridir.

Shuni ta'kidlash joizki, elektron ta'lim resurslaridan foydalanish ta'lim muassasalarida masofaviy o'qitishning deyarli barcha muammolarini to'liq hal qilishga, modullilik, interfaollik hamda variativli kabi tavsiflar hisobiga psixologik-pedagogik xususiyatdagi muammolarni ham sezilarli ravishda muvaffaqiyatli hal qilishi mumkin.

Zamonaviy ta'lim talablari asosida yaratilgan elektron ta'lim resurslar o'qitish samaradorligini oshiradi, ta'lim oluvchilarning bilimlarini tizimlashtirishni ta'minlaydi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda kasbga qiziqishini kuchaytiradi. Shunday ekan, elektron ta'lim resurslaridan foydalanish zamon talabi. Foydalanishda to'g'ri yo'lni tanlash qanchalik yuqori bo'lsa, maqsadga erishish ehtimoli shunchalik aniq, aksincha foydalanish noto'g'ri bo'lsa, maqsaddan uzoqlashtiradi, axborotning foydaliligi salbiy bo'lib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tursunov S.Q. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari. Toshkent-2011 yil.
2. Jo'rayev R.X, Taylaqov N. Elektron darsliklarni yaratish: nazariya va amaliyot. - T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007-yil.
3. Hamidov J., Obloqulov M. Elektron o'quv metodik majmuani loyihalashga tizimli yondashuv metodikasi. Toshkent-2017-yil.
4. Kasb-hunar ta'limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. 2020-yil.

FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

www.academicsbook.com

Vol: 2 Issue: 1 (2025)

5. Худойназаров, Ф. X. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Рақамли Технологиялар Асосида Ривожлантириш Билан Боғлиқ Бўлган Муаммолар. International scientific journal of Biruni, 3(2), 245-265.
6. Jumaeva, M., & Mahmudjonov, I. (2022). Foreign Language Teaching And Its Importance In The Introduction Of Today's Youth To Social Relations. Экономика и социум, (4-2 (95)), 186-189.
7. Abdumajitovna, V. N. (2024). Government Of Turkestan Autonomy And Its Activities. International Journal of Advance Scientific Research, 5(12), 179-181.
8. Xolnazarovich, B. X. (2024). Badiiy Matn Va uning Lingvopoetik Xususiyatlari. Miasto Przyszlosci, 51, 298-303.
9. Mukhittinova, K. A. (2022). Technical And Economic Condition Of Oil Drilling From The Field Of" Mubarak Ogp" Enterprise.
10. Jumayeva, M. B. (2021). Interactive Methods Used in.
11. Berdiev, H. (2020). Лингвопоэтика Масалалари Тадқиқида “Девону Луғотит Турк” Нинг Ўрни. Scienceproblems. uz, 2(2), 7-7.
12. Xolnazarovich, B. X. (2024). “Devoni Hikmat” Asarining Tarixiy Leksikani O ‘Rganishdaga Ahamiyati Masalasiga Doir. Miasto Przyszlosci, 51, 179-182.
13. Holnazarovich, B. H. (2020). Explanation of yurt building terms with through semantic methods. International Journal of Engineering, Science and Mathematics, 9(6), 9-13.
14. Jumayeva, M. B. (2022). Oliy Ta’limda Innovatsion Usul Va Vositalar. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 20), 214-226. doi: 10.24412 (Vol. 226). 2181-1784-2022-20-214.
15. Бердиев, X. X. (2016). Метафорические термины в лексике юртозведения. Язык в сфере профессиональной коммуникации.—Екатеринбург, 2016, 73-76.